

BIOTEXNOLOGIYA: BIOMASSA, BIOGAZ

Bakirova Sevaraxon Otabek qizi

Andijon davlat universiteti

E-mail: sbakirova471@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qayta tilanuvchi energiya manbalarining atrof-muhitga ta'siri, ulardan oqilona foydalanish va qanday qilib tabiatga zarar yetkazmagan holda sof elektr energiya ishlab chiqarishdek dolzarb mavzu aks ettirilgan. Biomassa va biogaz qayta tiklanuvchi energiya manbalarining tabiatdan olinadigon eng hamyonbop usuli sifatida tasvirlangan.

Kalit so'zlar: ekobiotexnologiya, biogaz, biomassa.

BIOTECHNOLOGY: BIOMASS, BIOGAS

Abstract: In this article, the impact of renewable energy sources on the environment, their rational use and how to produce clean electricity without harming nature is reflected. Biomass and biogas have been described as the most affordable form of renewable energy sourced from nature.

Key words: ekobiotechnology, biogas, biomass.

Hozirgi vaqtda insoniyat oldida kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni toza saqlab qolish muammosi turibdi. Buning eng samarali usuli bu organik yoqilg'ulardan foydalanib ishlab chiqariladigan elektr energiya miqdorini kamaytirib, ekologik toza energiya ishlab chiqarishdir. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida sof energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Mana shu usullardan biri bu biomassa energiyasidan foydalanishdir.


Ekobiotexnologiya – biomassa maxsulotlaridan elektr energiya olishga va ishlab chiqarish chiqindilarining atrof-muhitga zararli ta'sirini turli xil vositalar bilan ishlov

berish orqali kamaytirishga qaratilgan. Biomassa – qayta tiklanadigan energiya manbalaridan biri bo‘lib, o‘simlik va hayvonlardagi barcha organik moddalarning kelib chiqishini anglatuvchi termindir. Hozirgi kunda ba’zi bir Yevropa mamlakatlarida elektr energiya olishda, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrash va foydali daraxtlarning kesilishini oldini olish maqsadida energiya olishning ushbu turidan foydalanilmoqda. Shuningdek, Shvetsiyada tez o‘sar tollar o‘stiriladi. Bunday tollar ekilgan maydonlar soni biomassa bilan ishlaydigan stansiyalarining biomassa yoqilg‘isi bilan ta’minlanishiga qarab belgilanadi. Biomassa sifatida foydalaniladigan maxsulotlar elektr stansiyalarida yoqiladi natijada ulardan ajralib chiqqan energiya elektr energiyasiga aylantiriladi. Shuningdek, bunday elektr stansiyalar biomassadan tashqari,uning ko‘p yillik biologik jarayonlardan keyin hosil bo‘ladigan torf va boshqalardan ham foydalanishi mumkin.

Ba’zi bir birikmalarni parchalash orqali mikroorganizmlar ishlab chiqarish chiqindilarini zararsizlantiradi va bizga zarur moddalarni olishga yordam beradi.

Bizning mamlakatda biomassa sifatida ishlatsa bo‘ladigan maxsulotlar quyidagilardir: g‘alla, g‘o‘za, kungaboqar, tamaki hamda poliz ekinlari. Hozirgi kungacha g‘o‘zaning poyasidan ozroq qog‘oz, spirt va bir qancha qurilish materiallarini ishlab chiqarishda xomashyo sifatida foydalaniladi. Yuqoridagi qolgan o‘simliklarning poyalari esa yoqiladi yoki tashlab yuboriladi. Mana shu qishloq xo‘jalik chiqindilaridan ham bioyoqilg‘i sifatida foydalansa bo‘ladi.

Biomassalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoqib, ulardan energiya olishdan tashqari biogaz ham olish mumkin. Biogaz bu turli xil biologik maxsulotlarni havosiz joyda achishidan hosil bo‘ladigan maxsulotdir.



Bioenergiya olish jarayoni

Biogaz, biomassa umuman olganda bioyoqilg‘i energiyasidan foydalanib olingan energiyalar tabiatga bo‘lgan salbiy ta’siri kamligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda butun dunyo qayta tiklanuvchi energiya manbalariga muhtojdir va bu borada rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, bizning yurtimizda ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha 3 yil ichida Prezidentimiz tomonidan 9 ta qaror imzolandi va xalqaro kompaniyalar bilan birgalikda 10 ta bitim tuzildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. Majidov. “Noan’anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari”. Toshkent “Voriz” nashriyoti 2014
2. openscience.uz
3. earw.tiame.uz